Xitoy bilan hamkorlik aloqalari

Namangan davlat universitetiga Xitoy Fanlar Akademiyasi Kunming hududiy boshqarmasi direktori Djo LI, Kunming Botanika instituti direktori professor Sun Xang va shu institut professori Deng Tao hamda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti direktori, akademik Komiljon Tojiboyevlar tashrif buyurishdi.

Pofessorlar tomonidan huddudda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar, botanika sohasi amalga oshirilayotgan ilg‘or tajribalar va ularni amaliyotda qo‘llash, atrof muhitni muhofaza qilishda innovatsion yondoshuvlar hamda kelgusidagi xamkorlikning istiqbollari bo‘yicha talabalarga mahorat darslarini olib borishdi. Shuningdek, universiteti Biotexnologiya fakulteti dekani D.Dehqonov tomonidan “O‘zbekistonda tarqalgan noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simliklarni muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi taqdimoti olimlar va talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Tashrif davomida mexmonlar Biologiya kafedrasi qoshidagi yangi tashkil etilgan “Professor Sh. Tojiboyev nomidagi Algologiya ilmiy laboratoriyasi”ga tashrif buyurishda va kelajakda mazkur laboratoriyani qo‘shma xalqaro laboratoriyaga aylantirish masalasi muhokama qilindi. Shuningdek, Biologiya kafedra bitiruvchisi akademik K.Tojiboyev tomonidan talabalarga ingliz tilini o‘rganishga oid kitob va qo‘llanmalar sovg‘a qilindi.

Eslatib o‘tamiz, Namangan davlat universiteti va Kunming Botanika instituti amaliy hamkorlik natijasida universitet bitiruvchilaridan 2 nafari falsafa fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini olgan, 1 nafar tayanch doktorant ayni paytda Kungming Botanika institutida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib bormoqda hamda Kungming Botanika instituti direktori professor Sun Xang NamDU faxriy professori va o‘z navbatida Biologiya kafedrasi professori Komiljon Tojiboyev Kungming Botanika institutining faxriy professori unvoniga ega.